



INFORMATIKA DARSLARIDA ELEKTRON DARS ISHLANMALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Mirzayeva Musfiraxon Xabibullaevna

Fargʻona viloyati Dangʻara tumani 3-son texnikumi informatika fani oʻqituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola informatika fanini oʻqitishda elektron dars ishlanmalarini tayyorlash va ular yordamida darsni olib borishning ahamiyati haqida yozilgan.

Kalit soʻzlar: AutoPlay Media Studio dasturi, elektron dars ishlanma, Borland Delphi7 dasturlash tili, metodlar, dars turi, amaliy mashgʻulot.

Har bir pedagog dars jarayoniga tayyorgarlik koʻrar ekan, uning asosiy maqsadi, oʻquvchilar bilan taʼlimiy-tarbiyaviy jarayonni olib borish jarayonida samarali bilim berish hisoblanadi, bu borada oʻquvchining oʻzlashtirish layoqatini, taʼlim samaradorligini, darsning texnologik xaritasini toʻgʻri tuzishni, dars mashgʻulotida qoʻllash mumkin boʻlgan turli metodlardan oqilona foydalanishni eʼtiborga oladi.

Pedagog, oʻqituvchilar uchun har bir dars yangi tajriba va sinov maydoni boʻlib, oʻquvchi–yoshlar bilan muloqot usullari va ularning psixologiyasini, mavzularni yaxshi tushintirish yoʻllari va qanday samaradorlikka erishish usullarini qoʻllash orqali oʻquvchilarga bilim berish jarayonida yangi malaka va koʻnikmalarga erishib boradi.

“Dars muqaddas” deb aytilgan gapning zamirida, har bir oʻtilgan dars, yangi oʻrganilgan bilim, kelajakka qoʻyilgan poydevor kabi ekanligini bilamiz. Shunday ekan, yoshlarimizning kelajagi uchun pedagog jamoasi astoydil bilim berishga harakat qilmogʻimiz va uni albatta ustidan chiqmogʻimiz darkor.

Bilamizki, oʻquvchilar qiziquvchan, bu borada ularni qiziqishlarini oʻz fanimizga qarata olishimiz, bu borada bir emas, koʻplab qiziqarli darslarni tashkil



etishda o'z ustimizda ishlamog'imiz zarur. Har kuni bir xil usulda olib boriladigan darslar o'quvchilarni bir xillikdan zerikishiga va charchashiga olib keladi, shunday ekan bunday holatga hech qachon tushmaslik uchun doim harakatda bo'lishimiz, yangiliklarni izlashimiz, uni o'z darslarimizda kerakli va foydali maqsadda o'rgata olishimiz, eng yaxshi pedagog bo'lib bormog'imiz shart.

Dars jarayonida turli ta'lim, interaktiv metodlarni qo'llash bilan birga elektron dars ishlanmalari, qo'llanmalar, videodarslar, test dasturi va boshqa dasturlar yordamida darslarni a'lo darajada tayyorlab, o'quvchilar bilan birgalikda yaxshi natijalarga erishishimiz mumkin. Bunday izlanishlarimiz natijasida o'quvchilarni faollikka, o'z ustida ishlaydigan, yangiliklardan foydalanishga urinadigan qilib boramiz. Ayniqsa, har bir dars uchun yaratilgan alohida elektron dars ishlanmalarining o'rni beqiyos.

Dars mavzusi texnologik xaritasini tuzishda darsni to'g'ri qismlarga ajratish va uni to'g'ri olib borish zarur. Masalan, mashg'uloti davomiyligi 80 minut informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda darsining asosiy ta'limiy maqsadi, mavzu bo'yicha tushunchalar berish, tasavvur hosil qilishga erishish, tarbiyaviy maqsadi esa o'quvchilarni estetik didini rivojlantirish, ishni tartib bilan bajarishga, milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini unutmagan holda, adolatli ish yuritishga o'rgatish, turli axborotlar bilan ishlaganda axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirishga erishish, rivojlantiruvchi maqsadga o'quvchilarning ilmiy dunyo qarashlarini shakllantirish, fan va texnikaga bo'lgan havas va qiziqishlarini orttirish, o'quv materialidan foydalana olish ko'nikmasini hosil qilish, muammoli masala va topshiriqlarni yechish, mashqlarni mustaqil ravishda bajarishlarini oldimizga qo'yamiz.

Bu maqsadlarga erishish uchun, albatta, darsga astoydil tayyorgarlik ko'rishimiz darkor. Bir amaliy dars mashg'uloti namunasida Auto Play Media Studio dasturida yaratilgan elektron dars ishlanmasidan foydalanib, ta'lim



samaradorligiga erishishimiz mumkinligi haqida fikrlarimni darsning uslubiy ko'rinishida ishlatilishi orqali sizlarga ko'rsatib o'tmoqchiman.

Demak, elektron dars ishlanma yordamida darsning uslubiy ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

1. Tashkiliy qism, Kirish (5 minut): O'quvchilar bilan salomlashiladi. Ularning kayfiyati va ruhiy holatiga nazar solinadi. Dars sanasidan kelib chiqib, ijtimoiy hayotimizdagi o'zgarishlar, yangiliklar, muhim voqealar haqida qisqacha aytib o'tiladi. Axborot texnologiyalari olamida yangiliklar, innovatsiyalar haqida o'quvchilarni fikr bildirishga undaydi. O'qituvchi bugungi darsni va uning maqsadini bayon qiladi. O'quvchilar davomati tekshiriladi. Navbatchi o'quvchi bayonoti tinglanadi. Darsga kelmagan o'quvchilar haqida darsga kelmaganlik sabablari o'rganiladi.

2. O'tilgan mavzuni takrorlash (10 minut):

Oqituvchi tomonidan tayyorlanagan elektron dars ishlanmadan foydalanish yordamida o'tilgan dars mavzusi bo'yicha o'quvchilardan o'zlariga yoqqan ta'lim metodlaridan birini tanlash so'rladi, hamda darslarda olingan bilimlari ekranda tasvirlangan metodlardan birini tanlash orqali bajariladi.

O'quvchilar savollarni tanlanganda, elektron darslikda ketma-ket o'tish tugmasi yordamida savollar va berilgan vaqt ichida javoblar ekranda hosil bo'ladi. O'quvchilarning javoblari tahlil qilib boriladi.

Beriladigan savollar soni o'quvchilar o'zlashtirish darajasi hamda ishlab chiqilgan texnologik xarita, darsga ajratilgan vaqtni inobatga olgan holda olib boriladi. Ushbu metodni qo'llash orqali o'quvchilar uy vazifasi bo'yicha baholadilar. Rasmda tasvirlangan metodlarda aqliy hujum, xatolar ustida ishlash, test, tanlov metodlarini birgalikda qo'llash ko'rsatib o'tilgan. Demak, elektron dars ishanmasidan foydalanganda bir emas, bir necha interaktiv metodlardan foydalanib bu jarayonni olib borish imkoniyatiga ega bo'lamiz.



3. Yangi mavzuni tushuntirish (20 minut): O'quvchilar diqqati yangi mavzuga qaratiladi. Buning uchun mavzu atrofida qiziqarli ma'lumotlar, o'quvchilar bu mavzuni nega o'zlashtirishi kerakligi haqida gapiriladi. Mavzuga doir yoki o'quvchilarni mavzu atrofida qiziqishini oshishiga xizmat qiluvchi video yoki audio lavhalar taqdim etiladi yoki proyektor yordamida o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lgan slaydlar ham ko'rsatilishi mumkin.

Ko'rsatilgan ma'lumotlar asosida o'quvchilar faolligini oshirishga harakat qilinadi. Ko'rsatilgan ma'lumotlar haqida fikringiz qanday? Siz bu haqida qanday maslahatlar bera olasiz? O'quvchilarni fikr bildirishi uchun navbatma-navbat turgiziladi, bildirilgan fikrlar haqida munosabatlar eshitiladi. Yangi dars mavzusi bo'yicha tushunchalar va kalit so'zlar aytib o'tiladi.

Yangi dars mavzusiga doir dastlabki tushunchalar berilgandan so'ng, ishlash uchun amaliy vazifa masalasi qo'yiladi, qanday yechilishi, yo'l –yo'riqlari, qay holatda qo'llanilishi tushuntiriladi. Elektron dars ishlanma orqali bu jarayonni ortiqcha vaqt sarflamasdan ko'rgazmali tarzda o'quvchilarga tushunarli holatda olib borish imkoniyati mavjud.

Yangi mavzuni mustahkamlash (5 minut): Mavzu bo'yicha birinchi amaliy vazifa tushuntirilib o'quvchilar bilan ishlangandan so'ng, ikkinchi vazifada fanlararo bog'liqlikni inobatga olib ba'zi fizik, matematik, kimyoviy masalalarni hal qilishda informatika va axborot texnologiyalari fani yordamida masala hal qilinadi.

Dars mavzusi dasturlash bo'lgani bois, qo'yilgan masala shartining dastur kodi, forma oynasi hosil qilinadi hamda da o'zlariga yoqqan fandan berilgan masalani amaliy mashg'ulot vazifasida tuzish imkoniyati bo'ladi. Dars ishlab chiqiladi. Bu bosqichda o'quvchilar O'quvchiga tanlash ixtiyori beriladi, dars davomida o'quvchilarni ishi kuzatilib, xato va kamchiliklar tushuntirilib, tuzatib boriladi. O'quvchilarda yangi bilim va ko'nikmalar shakllantirilib boriladi.

Darsning yakuniy qismi (5 minut): Dars bosqichlari amalga oshirilib borish jarayoni yakunlanar ekan o'quvchilarning baholari e'lon qilinadi, ularning kamchilik-



yutuqlari e'tirof etiladi. Uy vazifa e'lon qilinib, maxsus ko'rsatmalar beriladi. Bu jarayonda o'quvchilarga uy vazifasi kartochkalari tarqatilishi ham mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Auto Play Media Studio dasturi yordamida yaratilgan bunday elektron darsliklardan foydalanish orqali darsni sifatli o'tishiga erishamiz, chunki dars tashkil etilishi kerak bo'lgan reja asosida olib boriladi, barcha dars qismlari ketma-ket amalga oshiriladi, vaqt tejaladi, kerakli fayllarni yuklashga ketadigan vaqtlar tugmalarni tanlash orqali amalga oshadi. Dars qiziqarli va o'quvchilarni texnikalar va dasturlashga bo'lgan qiziqishini orttishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. 10-sinf Informatika va axborot texnologiyalari fani darsligi. –T:“EXTREMUM-PRESS”,2016.
2. 11-sinf Informatika va axborot texnologiyalari fani darsligi. –T: “EXTREMUM-PRESS”,2017.
3. Yuldashev U.Yu., Boqiev R.R., Zokirova F.M. Informatika va axborot texnologiyalari. Akademik litsey va kollejlari uchun o'quv qo'llanma. –T:2012.
4. Boqiyev R.R. Yuldashev U.Yu. Informatika o'qitish metodikasi. – T.:Talqin,2005.